



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 98 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bezzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlari	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdievich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	



KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI GRAMMATIK VA DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MODEL VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya: Mazkur maqola tibbiyot institutlari talabalari orasida grammatik va diskursiv ko'nikmalarni shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Maqsad — kognitiv yondashuv asosida samarali model va texnologiyani ishlab chiqishdir. Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatuv, eksperiment va statistik usullar qo'llanilgan. Natijalar talabalarda grammatik bilimlarni tizimlashtirish hamda diskursiv kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini ko'rsatmoqda. Muallif o'z yondashuvi orqali kognitiv jarayonlarning til o'rganishga ta'sirini ochib bermoqda. Ilmiy yangilik — lingvodidaktik jarayonda kognitiv modelni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: kognitiv yondashuv, lingvokognitiv mexanizmlar, grammatika, diskurs, kommunikativ kompetensiya, lingvodidaktika, model, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article explores the issue of developing grammatical and discursive skills among medical institute students. The aim is to design an effective model and technology based on the cognitive approach. The research employed theoretical analysis, pedagogical observation, experimentation, and statistical data processing. Findings revealed that the model ensures systematization of grammar and development of discursive competence. The author highlights the impact of cognitive processes on language acquisition. The scientific novelty lies in proving the effectiveness of integrating a cognitive model into linguodidactic practice.

Key words: cognitive approach, linguocognitive mechanisms, grammar, discourse, communicative competence, linguodidactics, model, pedagogical technology.

Аннотация: Статья посвящена проблеме формирования грамматических и дискурсивных навыков у студентов медицинских институтов. Цель исследования – разработка модели и технологии на основе когнитивного подхода. Применены методы теоретического анализа, педагогического наблюдения, эксперимента и статистической обработки данных. Результаты показали эффективность модели в систематизации грамматических знаний и развитии дискурсивной компетенции. Автор акцентирует внимание на роли когнитивных процессов в изучении языка. Научная новизна состоит в доказательстве результативности применения когнитивного подхода в лингводидактике.

Ключевые слова: когнитивный подход, лингвокогнитивные механизмы, грамматика, дискурс, коммуникативная компетентность, лингводидактика, модель, педагогическая технология.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri zamonaviy kasbiy faoliyatda samarali muloqot qila oladigan, mustaqil fikrlash va o'z nuqtayi nazarini asosli tarzda bayon eta oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun chet tilida, xususan ingliz tilida erkin muloqot qila olish, ilmiy va kasbiy diskursni tushunish hamda undan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy tibbiyot nafaqat amaliy tajribaga, balki xalqaro hamkorlik, zamonaviy ilmiy yangiliklarni o'zlashtirish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanishga ham bevosita bog'liqdir.

Til o'qitishda an'anaviy yondashuvlar, ko'pincha, grammatik qoidalarni o'zlashtirish va lug'at boyligini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda kommunikativ hamda kognitiv yondashuv asosida til kompetensiyalarini shakllantirish talab etilmoqda. Kognitiv yondashuv talabalarning bilish jarayonlarini, tafakkur



faoliyatini va nutqiy kompetensiyalarini uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali nafaqat grammatik bilimlar, balki diskursiv kompetensiya — ya'ni kontekstual, madaniy va kasbiy mos muloqot olib borish qobiliyati ham shakllanadi.

Tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis uchun grammatik jihatdan to'g'ri, aniq va mantiqiy izchillikka ega bo'lgan nutq zaruriy ko'nikma hisoblanadi. Bunday ko'nikmalar nafaqat ilmiy maqola va hisobotlarni tuzishda, balki bemorlar bilan ishlashda, hamkasblar bilan maslahatlashishda, xalqaro anjuman va konferensiyalarda ishtirok etishda ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirish masalasi nazariy hamda amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda til o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Lekin grammatik hamda diskursiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini aynan kognitiv yondashuv asosida nazariy modelini ishlab chiqish va uni ta'lim amaliyotiga joriy etish hali ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqiladi hamda unga mos pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, o'quv jarayonida tilni o'zlashtirishning bosqichlari, bilim va ko'nikmalarni integratsiyalash mexanizmlari hamda talabalarning kognitiv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladigan metod va vositalar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv yondashuv asosida grammatik va diskursiv kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ko'plab tilshunoslar va pedagog olimlar tadqiqotlarida alohida o'rin egallagan. Til o'qitishda kognitiv metodlar tilni bilimlar tizimi sifatida o'zlashtirishga asoslanib, talabalarning tafakkur jarayonlarini faollashtiradi va bilimlarni kontekstda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi. N. Chomsky generativ grammatika nazariyasi orqali tilni inson ongida mavjud bo'lgan universal qobiliyat sifatida izohlagan bo'lsa, A. Wierzbicka til o'rganishda kognitiv kategoriyalar va konseptlarning muhimligini alohida ta'kidlaydi.

Grammatik kompetensiyani shakllantirishda kognitiv yondashuvning afzalligi shundaki, u nafaqat grammatik shakllarni yod olishni, balki ularning mazmuniy va funksional jihatlarini anglashni ta'minlaydi. R. Ellis ikkinchi tilni o'rganish jarayonida grammatik qoidalarni kognitiv jarayonlar orqali o'zlashtirish samaradorligini empirik tadqiqotlarda isbotlagan. Shuningdek, J. Richards va T. Rodgers kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida grammatikani kontekstdagi nutq bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatib o'tadi.

Diskursiv kompetensiyani rivojlantirish masalasi ham kognitiv yondashuv bilan chambarchas bog'liq. D. Hymes tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi diskursni til o'qitish jarayonining markaziga qo'yadi. M. Canale va M. Swain esa diskursiv kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri sifatida ko'rsatib, uni nutq birliklarini mantiqiy va semantik jihatdan bog'lash qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida ushbu kompetensiyani shakllantirish ularning kasbiy muloqotda aniq, lo'nda va mazmunli fikr almashishiga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda tibbiy ta'lim sohasida ham kognitiv yondashuv asosidagi tadqiqotlar kengaymoqda. J. Swales ilmiy diskursni o'rgatishda "genre analysis" metodologiyasini taklif qilib, talabalar uchun kasbiy yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv elementlarning ahamiyatini asoslab berdi. Shuningdek, E. Hatch til o'qitishda kognitiv va ijtimoiy omillar uyg'unligini ta'kidlab, talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv vaziyatlarning rolini yoritib berdi.

Tibbiyot ta'limida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham kognitiv yondashuvga asoslanmoqda. Masalan, J. Bruner konstruktivistik didaktik modelida talabalarning bilim olish jarayonini faol kognitiv faoliyat sifatida ko'rib chiqadi. Bu yondashuv tibbiyot talabalarida nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kasbiy diskursni samarali o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kognitiv strategiyalarni ham shakllantiradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kognitiv yondashuv grammatik va diskursiv kompetensiyalarni shakllantirishda samarali metod hisoblanadi. U nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularning amaliy kontekstda qo'llanishini ham ta'minlaydi, bu esa tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi ilmiy adabiyotlar tahlili, xorijiy va mahalliy manbalar o'rganilishi, shuningdek, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'rtasida kuzatuv va so'rovnoma o'tkazish orqali amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, grammatik hamda diskursiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidagi asosiy omillar aniqlab berildi.




TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq asosida grammatik ko'nikmalarni shakllantirish uchun ishlab chiqilgan modelda biz S. K. Gural tomonidan chet tili nutqini o'qitishning juda murakkab o'zini o'zi rivojlantiruvchi tizim sifatida qaralgan modeliga, shuningdek, S. Yu. Strelkova tomonidan diskursiv grammatikani o'qitishning integratsion modeliga tayandik. Bizning modelimiz kommunikativ yo'nalishga asoslangan, chunki zamonaviy lingvistik ta'limda turli kommunikativ vazifalarni hal qilishga qodir lingvistik shaxsni shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Modeldagi o'quv jarayonining maqsadi nutq asosida kommunikativ grammatik ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Bu nafaqat o'rganilayotgan tilning grammatik qoidalarini mexanik yodlash, balki o'rganilayotgan tilda nutqni idrok etish va uni ishlab chiqish jarayonida shakllangan grammatik ko'nikma hamda qobiliyatlardan foydalanish mexanizmini yaratish jarayonidir.

Ta'lim maqsadi ta'lim tamoyillari tizimini belgilaydi. Ular o'z navbatida umumiy metodologik (kognitivlik prinsipi, antropotsentriзм prinsipi, integrativlik prinsipi, induktivlik prinsipi) va alohida metodologik (grammatik haqiqiylikni shakllantirish prinsipi, diskursivlik prinsipi, funktsionallik, kommunikativ yo'nalish prinsipi, interfaollik prinsipi, aniqlik prinsipi, kontrastlik prinsipi) bo'lib ajraladi. Ta'lim tamoyillari lingvistik, protsessual, texnologik va psixologik tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan ta'lim mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Grammatik va diskursiv ko'nikmalarni shakllantirish modeli va texnologiyasi



Endi bo'lsa, tadqiqotimizda har bir komponent nimani o'z ichiga olishini tushuntiramiz. Birinchi komponent — lingvistik. Ushbu komponent grammatikani o'qitish mazmunini tanlashda birlamchi va eng an'anaviy hisoblanadi, chunki u tematik ravishda tashkil etilgan o'rganilgan grammatik shakllar va tuzilmalar ro'yxatini o'z ichiga oladi: nutqning muhim qismlari morfologiyasi, nutqning xizmat qismlari, oddiy jumla sintaksisi, murakkab jumla sintaksisi, matn grammatikasi. Ushbu komponent o'rganilayotgan til grammatikasi sohasida tizimli bilimlar uchun asos yaratadi. Materialni tanlash ko'p jihatdan ushbu komponentga bog'liq bo'lib, u aloqa sohasini, kommunikativ vaziyatning o'zini, nutq jarayoni ishtirokchilarini va ularning holatini, aloqa ishtirokchilarining kommunikativ maqsadi hamda niyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Shuningdek, matnlarning reestri va janrini tanlash, qaysi biri o'rganilgan grammatik materialning diskursiv xususiyatlarini ochib berishini aniqlash zarur.

Modelning protsessual komponenti grammatik material bilan ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, nutqni tushunish va shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni belgilaydi. Ushbu tamoyil o'z-o'zini rivojlantirishning sinergetik asoslariga tayangan. Bu komponent ma'lum bir aloqa sharoitida yetarli grammatik shakli yoki sintaktik tuzilmani tanlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, o'rganilayotgan grammatik birlikdan kontekstda foydalanishni tanlashga alohida e'tibor qaratiladi, chunki bu uning funksional xususiyatlarini to'liq namoyon etadi.

Shunday qilib, grammatik ko'nikmalarni egallash nutqni o'zlashtirish darajasida bo'lishi kerak. Bu nafaqat o'rganilayotgan til grammatikasining asosiy qoidalarini o'zlashtirishni, balki o'rganilayotgan chet tili madaniyati uchun xos bo'lgan strategiyalarni bilishni ham nazarda tutadi. Shunga ko'ra, bu muayyan nutq vaziyatlarida grammatik vositalar va aloqa strategiyalarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, u kommunikativ maqsadlarga, munosabatlarga va kommunikantlarning ijtimoiy rollariga qarab turli nutq turlarini yetarli darajada tushunish qobiliyatini, shuningdek, nutq aloqasining muayyan holatida maqbul bayonotlarni yaratish qobiliyatini ham nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kognitiv yondashuvga asoslangan grammatik va diskursiv ko'nikmalarni shakllantirish modeli lingvistik tibbiy ta'lim talabalariga chet tilining diskursiv grammatikasini o'qitishning samarali metodologiyasini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Unda jarayonning maqsadlari, yondashuvlar va tamoyillar, mazmuni, tashkiliy tizimi, uslubiy shakllari hamda ushbu ko'nikmalarning shakllanish darajasini baholash mezonlari keltirilgan.

Ishlab chiqilgan model kommunikativ yo'nalishga asoslanadi. O'quv predmeti ta'lim jarayonida va rivojlanish bosqichida ko'p madaniyatli lingvistik shaxs sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonida o'rganish mavzusi chet tilidagi nutqqa asosiy e'tibor qaratadi va nutqni o'rganish jarayoni markaziy birlikka aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, J. R. (2010). Cognitive psychology and its implications. New York: Worth Publishers.
2. Ellis, R. (2015). The study of second language acquisition. Oxford: Oxford University Press.
3. N. Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965.-251 p.
4. A. Wierzbicka. Semantics: Primes and Universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.-512 p.
5. R. Ellis. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 1994.-824 p.
6. J.C. Richards, T.S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.-270 p.
7. D. Hymes. On Communicative Competence. – Harmondsworth: Penguin, 1972.-60 p.
8. M. Canale, M. Swain. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. – Applied Linguistics, Oxford University Press, 1980.-47 p.
9. J.M. Swales. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.-260 p.
10. E. Hatch. Discourse and Language Education. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992.-352 p.
11. J. Bruner. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.-121 p.
12. Tibbiyot institutlari talabalariga chet tilini o'rgatish jarayonida diskursiv kompetensiyani rivojlantirish. Pedagogik mahorat, 2024, №7.
13. Этапы работы с медиатекстом в процессе формирования дискурсивной компетенции. Научный журнал «Общество и инновации».



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>